



AYOLLAR PALTOSI UCHUN ZAMONAVIY MODELLAR TAHLILI

Nurmatova Durdonaxon Nodirbekovna,

Adilova Umidaxon Xabibulloh qizi,

ishlab chiqarish ta'lif ustalari.

Andijon shahar 1-son politexnikumi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ayollar paltosi assartimentining yangi dizayni va jahon brendlari kolleksiyasini taxlil qilingan, mintalitetimizga xos va mos bo'lgan kiyimlarini ishlab chiqarish va yangi model taklifi xaqida so'z boradi.*

Tayanch so'zlar: *dizayner, zamonaviy moda, moda xususiyatlari, jaxon brendlari, zamonaviy kiyim uslublari, innovatsiya, dizayn, model, mato, kiyim ko'rsatkichlari, kiyimga bo'lgan talab.*

Moda yo'naliшlarining turli xilligi, xususan, zamonaviy moda kiyimlar sohasida keng ko'lamli xususiyatlarga ega bo'lib, biz jahon modeler dizaynerlarining moda ko'rgazmalarida taqdim etilgan ayollar paltolarini o'rganib chiqildi. Zamonaviy palto tashqi ko'rinishlari turli uslublar, modellar va materiallardan iborat. Moda, albatta, madaniy meros namunalarini o'zgartirish kabi inson faoliyatining ko'plab sohalarida mavjud, lekin birinchi navbatda moda tashqi ko'rinishimizni shakllantirishimizga yordam beradi. [2] Zamonaviy inson, bir tomonidan, yuqori sifatli, eng oddiy, qulay kiyimni afzal ko'radi, bir tomondan u o'ziga xosligini va o'zini ifoda etish qobiliyatini ta'kidlashni istaydi. Moda olami eksperimentga qaratilgan - yangi dizaynlar, texnologiyalar va materiallarni qidirish; kelajakka yoki noma'lum shakllarni qidirishga urinish; urf bo'limgan shakl echimlar tanlashadi. Shu bois, dizaynerlarning ko'pchiligi innovatsion va tabiiy materiallardan foydalanishadi, modelerlar yangi shakllar va oldingi shakllarni sinab ko'rishadi, shu bilan yangi loyihalarni yaratadilar, ya'ni bunday tajribalar moda yo'naliшiga yuqori natjalarga erishadi.



Dizayn - dunyodagi eng subjektiv narsalardan biri. Har bir inson psixofizik darajasida shakl va rangni his qilishni ko'rib chiqadi, va bu idrok muallifning ta'kidlagan so'zidir.

2024- 2025 yil mavsum uchun dizaynerlar tomonidan tavsiya etilayotgan keng assartimentli va funksiyali ustki kiyimlar ayollar garderobining ajiralmas va aktiv qismi bo'lib, ular och va to'q ranglarda bo'ladi.

Bahor va kuz mavsumlarining asosiy palitrasи: bu mavsumlar uchun mos bo'lgan xususiyat, qabul qilingan norma va standartalardan chetga chiqish, ranglar gammasiga bo'lgan butunlay yangicha takliflar. [3]Axromatik ranglar va yumshoq, gigroskopligi yuqori bo'lgan yengil va suv o'tkazmaydigan, turg'un holatda turadigan gazlamalar turlari mashhur bo'ladi.

Mavsumiy matolar: havoni yaxshi o'tkazuvchan, suv o'tkazmaydigan, turg'un holatda turadigan gazlamalar.

Mavsumiy ranglar: jigarrang, havo rang, kulrang va qora ranglar.

Ayollar paltoining zamonaviy kiyimining dekor elementlari sifatida:
dekorativ va utilitar bezaklar: qoplama cho'ntaklar va tugmalar;

dekorativ-konstruktiv bezaklar: drapirovska va mayda taxlamalar.


Mavsumiy ranglar palitrasи: [1]Ayollar ustki kiyimlar zamonaviy kiyimining to'plami garderobning ajralmas va aktiv qismi bo'lib, uning ranglar palitrasи zamonaviy tikuv buyumlari uchun ishlangan ranglarga mos keladi. Bu ranglar: jigarrang, havo rang, kulrang va qora ranglar.

Asosiy siluetlar: oversize, trapetsiyasimon, ovalsimon va to'g'ri bichimdagи kiyimlar. Asosiy e'tibor trapesiyasimon va to'g'ri bichimli kiyimlarga qaratiladi.

Siluet chiziqlari kiyimning proportsiyasi, uning hajmdorligi va tashqi ko'rinishini xarakterlabgina qolmay, uning siluetini ham aniqlaydi. Masalan, kiyimning bel qismida yopishib turish holatiga qarab bir necha siluet turlari mavjud:

- yopishgan (lif va yubkaning hajmdorligi har xil bo'lishi mumkin);
- yarimyopishgan (belga yopishishning turli darjasи);
- to'g'ri (bel va bo'ksa qismida katta yoki kichik miqdordagi erkinlik);
- kengaytirilgan (trapetsiyasimon).

Trendlar: Hozirgi kunda ayollar paltolari uchun ko‘p funksiyali, to‘g’ri bichimli, suv o’tkazmaydigan turg’un xolatdagi matosi tavsiya etiladi.



1-rasm. Zamonaviy paltoning geometrik shakllari

1-jadval

Ayollar paltosi uchun modellar to‘plami.

Kiyim tavsifi	Kiyim ko’rinishi
<p>Kombinatsiyalashgan to‘g’ri bichimli palto. Deyarli barcha ayollar har qanday mavsumda, qomati qanday bo‘lishidan qattiy nazar go’zal ko’rinishni hohlaydilar. Ushbu turdagи ayollar ustki kiyimi jensi va plashlik matolar birlashmasidan foydalanilgan bo’lib to‘g’ri bichimgali va beldan ajraladi.</p>	
<p>Ayollar ko‘p funksiyali paltosi. Bugungi kunda deyarli barcha ayollar o’z garderobida ko‘p funksiyali kyimi bo‘lishini hohlaydi. Ushbu turdagи ayollar kuz-qish mavsumidagi paltosi kamzul,kasyum va palto sifatida foydalanishga ega. Zamonaviy modanining natijasiga ko‘ra bu turdagи paltolar barcha uslublarda ko‘rishimiz mumkun.</p>	

Kombinatsiyalashgan stilldagi ayollar ustki kiyimi.

Turli ko‘rinishda loyihalanayotgan ayollar paltosi ko‘p ayollarimiz tanloviga erishmoqda. Havoning harorati yuqori bo‘lsa, zinch materialdan tayyorlangan paltolarni kiyish mumkin. Ushbu turdagи ayollar plashi sport va klassik usullar birlashishidan hosil bo‘lgan. Ayollar ustki kiyimlar uchun tunikali liboslar qulay, kalta bo‘lgani uchun bemalol harakat qilish mumkin.



Yomg’irpo’sh. Ayollar kiyimlarini tashqi tasirlardan himoyalagich charm va plyonkadan tashkil topgan. Yomg’irpo’shlar hozirgi kunda turli bichimga ega bo‘lib, har qanday uslubga mos keladi. Libos uzunligini har bir inson didiga moslab tanlashi mumkin. o‘ziga hos qulayliklari bilan barcha mavsumlarda juda keng qo‘llaniladi.

**Transformatsiya usuli asosidagi ayollar ustki kiyimi.**

Ushbu turdagи ustki kiyimni palto kurtka va kamzul sifatida kiyish mumkin. Juda qulay va kuz, qish va bahor mavsumlarida kiyish mumkin.



Ikki funksiyali ayollar paltosi. Hozirgi zamonaviy moda olamida ayollar ustki kiyimlar uchun turli kastyum va plashdan iborat kiyimini ko‘rishimiz mumkin. Qulaylik jihatidan yuqori tanlovlarga ega. Kuz qish va bahor mavsumlar uchun mos holatlarda loyihalash mumkin.



Insoniyat jadal taraqqiyot yo'liga o'tgandan beri badiiy tafakkur va innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni his qila boshlaydi. Bu jarayon shundan dalolat beradiki, bugungi kunda ish olib borilayotgani hech kimga sir emas inson faoliyati erishmagan sohalarda, yangi yo'nalishlarda ilg'or darajada amalga oshirildi. [5]. Ularning o'rni beqiyos dizayn faoliyati, yuksak professional saviyasi va estetik ko‘rinishida dunyoning yetakchi dizaynerlari va taniqli mamlakatlariga ushbu sohaning ta'mini berish. Ayni paytda zavodlarni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda uskunalar, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish tikuv mahsulotlari hajmini oshirish uchun to'liq texnologik jarayonni ta'minlaydigan va ularning sifatini oshirish. O'zbekistonda tikuvchilik sanoatining rivojlanishi oldinga sezilarli qadam tashladi bir necha yil. Bu o'z brendiga ega bo'lgan kichik ishlab chiqarish korxonalarining ko'payishida, reklama xizmatlari va boshqalar. Maqolada o'smirlar va bolalar modasi so'nggi paytlarda qanday o'zgarganligi haqida yillar va qanday moda kiyimlarini tanlash kerak. so'z ketadi. Yuqorida qayd etilgan fikr va sifatlardan kelib chiqib, ishlab chiqarish korxonalarining asosiy maqsadi mentalitetimizga mos kiyimlar ishlab chiqarishdir.

Xulosa

Ayollar yangi palto dizayni turlari o'rganildi va tahlil qilindi. Yangi dizayn tahlili asosida, jahon standartlariga javob beradigan sifatli paltolar ishlab chiqarishi aniqlandi. Aynan qulay va ko'p maqsadda foydalansa bo'ladigan kiyimlar assortimentini kengaytirish birinchi navbatda kiyimning bichimi va shakliga bog'liq bo'lishi aniqlandi. Ayollar ko'p funksiyalik paltolarini loyihalash uchun tashqi



ta'sirdan yahshi himya qilishi va issiqlikni saqlashi,qulay va yumshoq matolardan ishlab chiqish tavsiya etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. Tursunova Xilola Shuxratjon qizi. “Badiiy bezash usullaridan foydalanib ayollar murakkab bichimli kiyimini ishlab chiqish texnologiyasi tadqiqi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

[2]. Абдукаримова.М.А.Разработка технологии формирования рационального ассортимента женской одежды. Диссер. на соискание ученой степени к.т.н. – Ташкент, ТИТЛП, 2003

[3]. Хасанбаева Г.К., Шомансурова М.Ш. Maxsus композиция.-Т.: 2007, Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing) S.M Husanqizi, Y.D

Ubaydulloyevna, H.J Valiyevich-Asian Journal of Multidimensional Research, 2021

[4]. Publi hed by :TRANS Asian Research Journal s AJMR:

[5].Asian Journal of Multi dimensional Research (ADouble Blind Refereed& Peer Reviewed International Journal)DOI: WAYS TO SOLVE PROBLEMS IN THE PRODUCTION OF KNIT WEAR M. M. Ulug'boboyeva; X.Sh.Tursunova
<http://tarj.in/images/download/ajmr/AJMR-SEPTEMBER-2021-FULL-JOURNAL.pdf>